

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



2024 йил  
6 июнь  
№ 23 (964)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган



## МАРКАЗИЙ ОСИЁ ВА ХИТОЙ

Хитой Халқ Республикасининг ташаббуси билан Шинжон-Уйғур автоном районида Марказий Осиё ва Хитой мамлакатлари Фавқулда вазиятлар идоралари раҳбарларининг йиғилиши ўтказилди.

Йиғилишда томонларнинг табиий офатларнинг олдини олиш, зарарни камайтириш ҳамда оқибатларини бартараф этиш, саноат хавфсизлигини назорат қилиш ва кенг қамровли авария-қутқарув операциялари каби соҳалардаги ҳамкорлиги кўриб чиқилди. Шунингдек, амалий ҳамкорликни чуқурлаштириш бўйича янги таклифлар ҳам илгари сурилди.

Тадбир давомида Ўзбекистон Республикаси Фавқулда вазият-

лар вазири генерал-майор А.Қўлдошев маъруза билан иштирок этди. У ўз нутқида мамлакатимиз раҳбарияти томонидан аҳоли ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулда вазиятлардан муҳофаза қилиш борасида амалга оширилаётган комплекс чора-тадбирлар ҳақида тўхталиб ўтди. Шунингдек, тезкор ахборот алмашишни йўлга қўйиш, фавқулда вазиятларнинг олдини олишда минтақанинг барча мамла-

катлари ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш, чегара дарёларида қирғоқларни мустаҳкамлаш ишларини олиб бориш, қўшма машғулотлар ўтказиш, эрта огоҳлантириш тизимини кенг жорий этиш борасида ҳам муҳим фикрлар баён этилди.

Қолаверса, ушбу форум доирасида Марказий Осиё мамлакатлари фавқулда вазиятлар идоралари раҳбарларининг маърузалари, эксперт ишчи гуруҳининг йиғилиши, минтақавий тренинглар, семинарлар, делегациялар раҳбарларининг икки томонлама учрашувлари бўлиб ўтди.

Андижон вилоятида “Ёш қутқарувчи – 2024” мусобақасининг Республика босқичи бўлиб ўтди. Унда Тошкент шаҳар, Қорақалпоғистон Республикаси барча вилоятлардан келган умумтаълим ҳамда касб-хунар таълими муассасалари ўқувчиларидан иборат 28 та жамоадан 224 нафар иштирокчи қатнашди.

## “ЁШ ҚУТҚАРУВЧИ – 2024”



Қизгин ва мurosасиз кечган мусобақа якуний натижаларига кўра, касб-хунар таълими муассасалари бўйича 3-ўрин Тошкент вилояти 1-сонли касб-хунар мактаби жамоасига насиб этган бўлса, 2-ўринга Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳар 1-сонли касб-хунар мактаби жамоаси муносиб, деб топилди. Барча шартларда юқори натижаларни қайд этган Андижон вилояти Пахтаобод тумани 2-сонли касб-хунар мактаби жамоаси 1-ўринни қўлга киритди.

Умумтаълим мактаблари жамоалари ўртасида ўтказилган баҳслар бўйича Навоий вилояти Навоий шаҳар 1-сонли умумтаълим мактаби жамоаси 3-ўринни, Андижон вилояти Асака туманининг 25-ихтисослашган давлат умумтаълим мактаби жамоаси эса 2-ўринни эгаллади. Нукус шаҳридаги 31-мактаби жамоасига 1-ўрин насиб этди.

## МУҲИМ МАСАЛАЛАР МУҲОКАМАСИ



Фавқулда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Х.Алибаев бошчилигидаги ишчи гуруҳ томонидан Бухоро вилоятининг барча шаҳар ва туман ФВ бўлимлари шахсий таркибининг маънавий-маърифий, ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ўрганилди.

Шофиркон, Ғиждувон ва Бухоро туманлари ФВ бўлимлари шахсий таркиб билан ўтказилган учрашувлар давомида мамлакатимизда етуқ ва малакали ҳарбий кадрларни тайёрлаш, уларнинг оилалари учун муносиб ҳаёт шароитларини яратиш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бирига айлангани таъкидланди. Миллий ўзликни англаш ва жанговар руҳни, ватанпарварлик тарбиясини кучайтириш, ҳарбий хизматчиларнинг интеллектуал салоҳиятини юксалтиришга жиддий аҳамият қаратиш зарурлиги таъкидланди. Тизим ходимларига Ватан ва халқ манфаатларига хизмат қилиш шарафли ҳамда муқаддас бурч эканини англатиш, қасамёдига содиқ бўлиш ва касбий бурчини бажаришда қонунийликка қатъий риоя этиш борасида муҳим фикрлар билдирилди.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



## TUSHUNTIRILDI

Uchqo'rg'on tumani "Do'stlik" MFYda qurilish ishlarini olib borayotgan quruvchilari, ishchi-xodimlari o'rtasida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi, kislorod ballonini alohida joyda saqlash moy hamda moyli materiallarga tegib ketmaslik choralarini ko'rish yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

**D.HOLIQOV,**  
Uchqo'rg'on tumani FV bo'limi **DYON**  
katta inspektori, kapitan.

MAVSUM  
TAYYORGARLIGI

Karmana tumani Paxtaobod mahallasida joylashgan "Ishonch" nomli bolalar oromgohining yong'in xavfsizligi mas'ullari tomonidan o'rganildi. Oromgohlardagi bino va inshootlarning texnik mustahkamligi, yong'inga qarshi zaxira suv hovuzlari, qalqonlar, yong'indan avtomatik xabar berish tashvishgohlarining sozligiga ahamiyat qaratildi. Oromgohda evakuatsiya tadbirlari va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish rejaları ishlab chiqildi. Suzish havzalari hamda oshxona, yotoqxonalarining sanitar holati ko'zdan kechirildi. Tashqari hududdagi begona o'tlar hamda zaharli hasharotlarga qarshi fumigatsiya tadbirlari o'tkazildi.

**Z. TOLIBOV,**  
Navoiy viloyati FVB  
Karmana tumani FV bo'limi  
tezkor bo'linma boshlig'i, kapitan.

## IMTIYOZLAR BERILMOQDA

FVV "Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi"da faoliyat olib borayotgan bir guruh harbiy xizmatchilarning farzandlariga Respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalarni tantanali ravishda topshirish tadbirlar bo'lib o'tdi.



Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tavsiyanomalarni mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan, jangovar-xizmatda va ilmiy faoliyatda muayyan natijalarga erishgan ofitser, serjant va oddiy askarlar tarkibiga mansub bo'lgan, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning farzandlari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun bevosita komandirlarning (boshliqlarning) tavsiyasi bo'yicha beriladi.

**N. KADIROV**  
FVV BT va MO markazi bo'lim  
boshlig'i, podpolkovnik.

## ZAMONAVIY FIZIKANING YUTUQLARI

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi professor-o'qituvchilari bilan Jamoat xavfsizligi universiteti Tabiiy fanlar kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent Sh.Abdullayev, O'zbekiston milliy universiteti Yadro fizikasi kafedrasida mudiri, fizika-matematika fanlari doktori, professor S.Polvonov, kafedra dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent Sh.Ro'zimov, Fotonika kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent A.Ramozonov hamda kafedra o'qituvchisi D.To'yurodovlar tomonidan "Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar", "Zamonaviy fizikaning yutuqlari", "Yadroviy texnologiyalar sohasidagi yangiliklar" va "Favqulodda vaziyatlarda va qo'riqlash tizimlarida optik aloqaning o'rni, yutuq va kamchiliklari" mavzularida mahorat darsi o'tkazildi.

**F. XOJAYEV, D. RAUPOV,**  
FVV Akademiyasi  
katta o'qituvchilari.

## XAVFSIZLIK

Farg'ona viloyati FVB boshlig'i polkovnik I.Qo'chqarov boshchiligidagi ishchi-guruhi tomonidan So'x tumani "Navobod", "Devayron", "Oftobru" MFY hududlaridagi sel yo'llarida olib borilayotgan ish jarayoni va qurilish ishlari bilan yaqindan tanishdilar. Bajariishi lozim bo'lgan muhim vazifalar yuzasidan zaruriy topshiriqlar berildi.

**J.YULDASHEV,**  
Farg'ona viloyati FVB ma'naviy-  
ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi bosh  
inspektori, kapitan.

## TAVSIYANOMA

"Qamchiq" Maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi boshlig'i tomonidan katta serjant B.Isroilov, I-darajali serjant M.Xoliqov, kichik II-darajali serjant A.Ergashev, kichik serjant U.Tojiyevlarning farzandlariga tavsiyanoma blankalari tantanali ravishda topshirildi.

**B.ISROILOV,**  
"Qamchiq" MQYOQB AQO AQG  
feldsheri, katta serjant.

## NAZORAT

Kattaqo'rg'on shahridagi Amir Temur, Qushhovuz va Qorirovot mahallalarida o'tkazilgan tadbirlarda yong'inlar, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va cho'kish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Shuningdek, tadbirlar davomida zilzila, yong'in va boshqa tushadigan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish bo'yicha davra suhbatlari o'tkazilib, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda foydalaniladigan maxsus texnikalar va asbob-anjomlar namoyish etildi.

**M.RAHMONQULOV,**  
Kattaqo'rg'on shahar FV  
bo'limi boshlig'i o'rinbosari,  
podpolkovnik.

## PROFILAKTIKA

Shayxontohur tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan obyektlarda maxsus-taktik o'quv mashqlari, mahallalarda aholi ishtirokida zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik ishlar amalga oshirilmoqda. Tadbirlar davomida zilzila vaqtida vahima ichida ko'chaga yoki boshqa xonaga yugurmaslik, eshik oldida turmaslik, zilziladan keyin tanada jarohat bor-yo'qligini tekshirish, gaz sizib chiqmasligiga ishonch hosil qilish lozimligi tushuntirilmoqda. Eng muhimi, har qanday vaziyatda ham inson o'zini ongli ravishda boshqara olishi kerak.

**G.KADIROVA,**  
Shayxontohur tuman FVB P va NB kichik inspektori,  
kichik serjant.

## ANJUMAN

Davlatobod tumanida "Aholini suvda cho'kishi bilan bog'liq noxush holatlarning oldini olish, cho'milish havzalarida xavfsizlikni hamda kichik hajmli kemalar va ular turadigan inshootlardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash" mavzusida ko'rgazmali o'quv-amaliy seminar va matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbir davomida yozgi cho'milish mavsumida aholini xavfsizligini ta'minlash, qo'riqlanmaydigan suv havzalarida aholining cho'milishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarining sanitariya-gigienik va epidemiologik holati hamda viloyat hududidan oqib o'tgan daryo, soy va kanallarda aholini doimiy cho'milishi odat bo'lib qolgan joylarni o'rganib chiqish va cho'kish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish hamda amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish belgilab olindi.

**Q. SATTAROV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

## O'QUV



Buxoro viloyati FVB XFX-YOM o'qituvchilari tomonidan viloyatdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari 24 soatlik dastur asosida favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tkazildi.

**B. ZIYODULLAYEV,**  
Buxoro viloyati FVB  
HFXYOM  
o'qituvchisi.

Farg'ona viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik Gayratjon Ibragimov tomonidan FNQIZ MCHJ 25-yong'in-qutqaruv qismida kross-fit yo'nalishi bo'yicha viloyat terma jamoasining harakatlari sinovdan o'tkazildi.

**R.ROZABOYEVA,**  
O'zJOKU harbiy jurnalistika  
yo'nalishi talabasi.

KROSS-FIT

## SAMARALI NATIJA

Buxoro viloyati FVB Aziya Trans Gaz MCHJ OYXTTEB xodimlari tomonidan obyektida "Yong'indan ogohlik" umum-milliy kampaniyasi doirasida tadbir tashkil qilindi.

Unda korxonaning ishchi-xizmatchilariga birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan qanday foydalanish, is gazi va ovqatdan zaharlanish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

**A.KAMOLOV,**  
Buxoro viloyati FVB Aziya Trans Gaz  
MCHJ OYOXTEB  
inspektori, kapitan.

OROMGOHLAR  
HOLATIGA E'TIBOR

Romitan tumani FV bo'limi hamda Milliy gvardiya boshqarmasi tomonidan "Romitan" bolalar yozgi dam olish oromgohida xavfsizlik, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi holati yuzasidan mavsumga tayyorgarlik ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. O'rganishlar davomida oromgohdagi yong'inga qarshi qalqonlarning asbob-anjomlar bilan to'liq ta'minlanganligi, maskandagi barcha xona, bino va inshootlar texnik jihatdan soz va foydalanishga yaroqli bo'lgan birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan to'liq ta'minlanishi, xonalardagi yong'indan darak beruvchi avtomatikalarning sozligi ko'rikdan o'tkazildi. Shuningdek, elektr sim va kablarning himoya qobiqlari elektr tokiga qarshilik darajasi sinovdan o'tkazilgan bo'lishi, nosoz elektr asbob-uskunalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaslik borasida tushuntirishlar berildi. Oromgoh tibbiyot xonasining zaruriy dori-darmonlar bilan ta'minlanganlik holatiga ham alohida e'tibor qaratilib, xodimlarning ilon va chayon chaqishi, oftob urishi hamda cho'kkanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilimlari tekshirildi.

**L. MUHAMMEDOV,**  
Romitan tuman FVB boshlig'i, mayor.

FVV Akademiyasining 4-batalyon kursantlarining xorijiy til fanidan egallagan bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

## “XORIJIY TIL” FANIDAN IMTIHON



Mazkur davlat imtihonida kursantlarning xorijiy til fanidan egallagan bilimlarini respublikamizning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Nizomiy nomidagi davlat pedagogika universiteti hamda O'zbekiston

Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasidan taklif asosida shakllantirilgan ilmiy darajalarga ega, tajribali xorijiy til fani mutaxassislaridan iborat komissiya tomonidan adolatli va shaffof baholab borildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, barcha kursantlar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirdilar.

**Akademiya axborot xizmati.**

## NAZARIY BILIMLAR MUSTAHKAMLANDI

“Farhod GES UK”da 3 bosqichdan iborat “Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalarining tuman FVDT xizmatlari bilan hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida o'tkazilgan maxsus-taktik o'quv mashqida dastlab, saf ko'rigi o'tkazildi. Shundan so'ng, obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalarining zilzila oqibatida vayronalar ostida qolib ketgan jabrlanganlarni qutqarish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha Shirin shahrining tegishli xizmatlari bilan birgalikdagi harakatlari amalda sinab ko'rildi.

Bundan tashqari, korxonaning ishlab chiqarish sexlarida yuzaga kelgan yong'inni bartaraf etish hamda ma'muriy binoning 4-qavatida qolgan jabrlanganlarni qutqarish bo'yicha tadbirlar bajarildi.

**D. SULAYMONOV,**  
Sirdaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.  
**B. HAKIMOV,**  
bosh inspektor, mayor.

Namangan viloyatida Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda viloyat hokimligi rahbariyati ishtirokida FVDT mas'ullari bilan “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi” oyligi doirasida bajarilgan ishlar va kelgusidagi rejalar muhokamasi o'tkazildi.

## MUHIM TAHLIL

Unda asosiy e'tibor viloyat hududlarida bahor, yoz mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilib, aholini bunday vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish yuzasidan topshiriqlar berildi.

**Q. SATTAROV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.



A-373 “Toshkent-O'sh” avtomobil yo'lining “Qamchiq” dovoni qismida joylashgan “Rezak” tunnelida 3 bosqichdan iborat “Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda obyekt FM tuzilmasi hamda hududiy FVDT xizmatlarining kuch-vositlari bilan hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

O'quv mashqi ishtirokchilari tomonidan avtomobil yo'lining “Rezak” tunnelida “Toshkent-Vodiy” yo'nalishida harakatlanib kelayotgan yuk avtomobili hamda yengil avtomobilning to'qnashishi natijasida kelib chiqqan yong'in oqibatlarini bartaraf etish, yo'lovchilarni evakuatsiya qilish bo'yicha amaliy tadbirlar bajarildi.

**M. JO'RAYEV,**  
“Qamchiq” MQYOQ boshqarmasi XvaJTTE bo'limi boshlig'i, kichik serjant.

## MOZIYGA SAYOHAT

Namangan viloyati FVBda ko'p yillar xizmat qilib, nafaqaga chiqqan faxriylar To'raqo'rg'on tumani FV bo'limiga tashrif buyurishib, shaxsiy tarkibga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. “Uch avlod” uchrashuvi davomida xizmat qilgan davrlarini yodga olishdi. Shundan so'ng “Isoqxon To'ra lbrat” muzeyiga sayohat uyushtirildi.

Kunning ikkinchi yarmida Axsikent arxeologiya parkidagi eksponatlar bilan yaqindan tanishildi. Tadbir davomida faxriylar Mingbuloq tumani FV bo'limida bo'lib, harbiy xizmatchi va xizmatchilarga hayot yo'llari, tajribalari hamda erishgan yutuqlari haqida so'zlab berdilar.

**Q. SATTAROV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

## SEMINAR

Farg'ona viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik U. Bobojonov hamda FMI xodimlari Jumadilla Sagatov, Abdullo Nurmatov, Dilmurod Qodirov tomonidan Farg'ona shahridagi bir qator ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. Shuningdek, Farg'ona viloyati FVB HFXO'M o'qituvchilari bilan hamkorlikda “Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlarning tahdidini pasaytirish mavzulari bo'yicha seminar tashkil etildi. Seminar davomida ishtirokchilarni qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan javob berildi.

**R. ROZABOYEVA,**  
O'zJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish davlat xizmati, “O'zgidromet” markazi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi, “O'zbekiston temiryo'llari” AJ mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tomonidan dovondan o'tgan temiryo'lga xavf soluvchi geologik xavfli jarayonlar va gidrometeorologik hodisalar o'rganilib, monitoringi o'rganishlar dalolatnomasida qayd etib borilmoqda.

## TEMIRYO' LDA XAVFSIZLIK



Tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etish maqsadida tegishli zaxiralar miqdori yaratildi. Xususan, “Orzu” vokzalida hamda Temiryo'lobod stansiyasida 4 ta vagonda 152 m<sup>3</sup> harsangtosh va ishga yaroqsiz temir-beton mahsulotlari, 3 ta vagonda 150 m<sup>3</sup> temiryo'l shag'ali, PCH-3 omborida 60 tonna sement va 400 dona yog'och shpallar, 300 dona simli gabion to'rlari mavjud.

Shuningdek, temiryo'li masofasida yuzaga kelgan yoki sodir bo'lgan gidrometeorologik va geologik vaziyatlarni doimiy kuzatuvga olish bo'yicha tashkil etilgan 8-, 62-, 69 km.larda kuzatuv postlari tashkil etilgan bo'lib, 14 ta muhandislik texnikalari navbatchilik olib bormoqda.

**A. QUDRATOV,**  
“Qamchiq” MQYOQ boshqarmasi navbatchi-dispatcherlik bo'limi boshlig'i, kichik serjant.

## BOLALARNING QUVONCHI UCHUN

Buxoro viloyati FVB tomonidan Somoniylar markaziy istirohat bog'ida o'quv-amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Ushbu tadbir rejasiga ko'ra shartli tarzda bog'dagi eng baland attraksionda texnik nosozlik kuzatildi va yong'in sodir bo'ldi. Hodisa oqibatida attraksion ichida qolgan fuqarolarni qutqarish belgilandi. Voqea joyiga yetib kelgan qutqaruv guruhi maxsus arqonlar yordamida attraksionda qolgan fuqarolarni qutqarish jarayonlarini amalga oshirishdi. Jangavor tayyorgarlik, ehtiyotkorlik va jadallik bilan ushbu amaliyot bajarilar ekan, o'quv-mashg'ulotini kuzatib turgan fuqarolar uchun ham bu albatta, qiziqarli bo'ldi.

**M. FAYZULLOYEV,**  
Buxoro viloyat FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

## YIG'ILISH

Kosonsoy tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan “Gurmiron” mahallasida tizim xodimlari, hamkor tashkilotlar, mahalla faollari ishtirokida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Tadbir davomida mahalla fuqarolariga elektr energiyasi hamda tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga rioya qilish, yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha tushuncha va ko'rsatmalar berildi. Tibbiy xodimlar bilan hamkorlikda nuroniylar holidan xabar olindi. Bundan tashqari, tuman FV bo'limi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi hamda tuman veterinariya bo'limi bilan hamkorlikda

ovqatdan zaharlanish, uy hayvonlarini saqlash va quturishga qarshi emlash borasida amaliy ishlar olib borildi.

**A. AHMATJANOV,**  
Kosonsoy tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.  
**I. MELIBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.



# QATOR TOPSHIRIQLAR IJROSI

Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanida "Boshqaruv organlari, Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi hududiy va funksional quyi tizimlarining tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha harakatlari" mavzusida qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqi davomida shartli ravishda qo'shni viloyat hududida vujudga kelgan zilzila Qo'shrabot tumaniga ham xavf soldi. Favqulodda vaziyatlar bo'yicha tuman fuqaro muhofazasi tuzilmasi zudlik bilan shoshilinch yig'in o'tkazdi. Yig'ilishda tumandagi korxonalar va tashkilot hamda muassasalarning fuqaro muhofazasi bo'yicha ma'sullari tabiiy ofatning tasiri, jabrlangan fuqarolarga yordam ko'rsatish,

evakuatsiya qilish hamda sodir bo'lgan turli vayronagarchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini bildirishdi. Shartli ravishda sodir bo'lgan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishga jalb etilgan tuzilmalar va ularga qarashli texnikalarning saf ko'rigi o'tkazildi. Uch kun davom etgan qo'mondonlik o'quv mashg'uloti davomida aholini yuqumli kasalliklardan saqlanishi, jabrlanganlarni qutqarish va ularga tibbiy yordam ko'rsatish, yo'llarni ta'mirlash, izdan chiqqan kommunikatsiya tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash singari o'nlab vazifalar bajarildi.

**G'. ALAVIDDINOV**  
Samarqand viloyati FVB  
boshlig'i birinchi o'rinbosari –  
Shtab boshlig'i, polkovnik.

## QOIDALARGA AMAL QILING!



Buxoro shahridagi "Atlantic pool" sun'iy havzasida "Suvda cho'milish qoidasi – salomatlik va xavfsizlik garovi" mavzusida amaliy seminar o'tkazildi. Seminarda viloyat Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Xalq

ta'limi, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi, oromgothlar rahbarlari va cho'milish bo'yicha instruktorlar ishtirok etdi.

**V.SAIDOVA,**  
Buxoro viloyati FVB  
T va TXFVB kichik  
inspektori, kichik serjant.

## DOVONDA REYD

"Qamchiq" dovonida xavfli yuk tashuvchi avtotransport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida, A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 193 km.da joylashgan "Chinor" YPX maskanida va 268 km.da joylashgan "Namangan" YPX maskanlarida kimyo-qutqaruvchilar tomonidan navbatchilik tashkil etilgan bo'lib, kunlik xavfli yuk tashuvchi avtotransport haydovchilari bilan profilaktik suhbatlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, har o'ying ikkinchi dekadasi xavfli yuklarni tashuvchi avtotransport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda reydlar tadbirlari o'tkazilmoqda.

Mutaxassislar tomonidan haydovchilarga dovon hududida harakatlanish vaqtida xavfli yuk tashuvchi mashinalar uchun sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasidan sig'im yaroqligi yuzasidan texnik xulosa olinishi,

haydovchilar xavfli yuklarni tashish bo'yicha maxsus o'quv kursni yakunlagani, birlamchi yong'in o'chirish vositasi, yong'in-ga qarshi yetarli miqdorda qum zaxirasi bo'lishi bo'yicha tavsiyalar berilmoqda.

**N.KADIROVA,**  
"Qamchiq"MQYOQB  
Radiasion, kimyoviy va tibbiy  
biologik muhofazasi tashkil  
etish bo'linmasi yetakchi  
mutaxassisi.

Inson hayotda samarali mehnati, olib borayotgan xayrli va ezgu ishlari bilan hurmat va qadr topadi. Oramizda shunday insonlar borki, ular o'z zimmasidagi vazifani ado etishga nafaqat bilimi, salohiyati, balki qalb qo'rini, mehrini bag'ishlaydi. Kasbiga bo'lgan sadoqati, fidoyiligi tufayli el-yurt orasida hurmat-e'tibor topadi.

## KASBIDAN QADR TOPGANLAR

Samarqand viloyati FVB xizmat va jangovar tayyorgarlikni tashkil etish bo'limi boshlig'i podpolkovnik Baxriddin Musurmonqulov haqida so'z ketganda shuurimizga beixtiyor yuqoridagi fikrlar keladi. U 1996-yilda ilk bor harbiy libosni Toshkent yong'inidan saqlash oliy texnik maktabi kursanti sifatida kiygan. 2000-yilda oliygohni a'lo baholarga tamomlagan. Tajribali ustozlardan kasbining nozik sirlarini, nimalarga e'tibor berish kerakligini o'rgandi. Keyinchalik o'zi ham yuzlab shogirtlarni yetishtirib chiqardi. Ayni paytda uning maslahat, nasihat va tavsiyalarini olgan shogirdlari o'z g'alar hayoti uchun o'z shirin jonini fido qilishga har lahzada tayyor turadigan, qaltis vaziyatlarda aniq qaror qabul qilib, ofat va halokatlardan insonlarni qutqarib qolishga qodir harbiylar sifatida faoliyatlarini olib borishmoqda. B. Musurmonqulov 46 yoshda bo'lishiga qaramasdan, hali ham chaqqon, epchil, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni qutqarishda jonbozlik ko'rsatmoqda. O'z-o'zidan ayonki, bajarilgan ish izsiz bo'lmaydi. Vatandarparvar o'g'lonning vazifasiga



nisbatan sidqidildan yondashuvi besamar ketmayapti. Aniqrog'i, fidoyilik rag'batlantirilib, hamkasblarga o'rnak sifatida namuna qilinmoqda.

Darvoqe, o'tgan vaqt mobaynida qutqaruv tuzilmalarida xizmat qilayotgan qutqaruvchilar xalqimiz ishonchini qozonib, aholi hayoti hamda sog'ligiga xavf tug'ilganida shoshilinch va samarali yordam ko'rsatadigan, o'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish hamda yordam berishdek, ulug'vor g'oya ostida xizmat qilishga tayyor, tezkor hamda professional jamoaga aylandi.

Yillar davomida Samarqand viloyati FVB tizimida haloskorlarning bilim-malakasi, matonatini sinovdan o'tkazish bilan bir qatorda, ularning favqulodda vaziyatlarga oldindan tayyorgarligini oshirish va bunday vaziyatlarda harakatlanishga oid bilim-konikmalarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda.

Inson qaysi bir sohada faoliyat olib bormasin, oila u uchun muqaddas sanaladi. Baxriddin ham ishdan bo'sh vaqtlarida oila bag'riga oshiqadi. Uning farzandlari Shahnozabonu va Parvinaxon otasining kasbidan faxrlanishadi.

**X.JALILOVA,**  
O'zJOKU harbiy jurnalistika  
yo'nalishi talabasi.

## MAQSAD SARI

Yangi O'zbekistonda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, farzandlariga kvota asosida oliy ta'lim muassasalarining bakalvriyat bosqichiga o'qishga kirishlari uchun tavsiyanomalar berish, uy-joy, maishiy sharoitini yaxshilash, farovon hayot kechirishlarini ta'minlash yo'lida oqilona siyosat yuritilmoqda. Ana shu islohotlar samarasini esa o'ta mas'uliyatli va sharafli kasb egalari har bir vakili qalban his etmoqda. Ular orasida Javohir Xolxo'jayev ham bor.

FVV Akademiyasining 5-bosqichida tahsil olayotgan suhbatdoshimiz Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanida dunyoga kelgan. U yoshligidan harbiy sohaga mehr qo'yg'an. Kelajakda Vatanimizning tinchligi, osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishni chin yurakdan istagan. Har bir inson oldiga maqsad qo'yishi kerak. Shu maqsad yo'lida tinimsiz harakat qilsa, albatta, niyatiga yetadi. Maqsadi va istagi birlashgani bois, Javohir ayni paytda 5-batalon kursantlari safida xizmat qilayapti. Qolavesa, uning otasi ham aynan harbiy sohada xizmat faoliyatini olib borgan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlar masalasi har doim davlat siyosati darajasidagi muhim masala bo'lib kelgan. So'ngi yillarda yoshlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko'lamdagi imkoniyat va shart-sharoitlar, ularning o'qib-o'rganishlari, qizg'in faoliyat ko'rsatishlari uchun qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Yurtimiz yoshlariga berilayotgan katta e'tibor, rag'bat qahramonimizning ham iqtidorini ro'yobga chiqarishiga, o'z ustida tinimsiz ishlashiga, intilishga undamoqda va bu sa'y-harakatlari o'z natijasini bermoqda. Akademiyada kursantlar uchun

yaratilgan mavjud sharoitlar Javohirni sohaga bo'lgan qiziqishini yanada oshirmoqda. Xususan, yangi o'quv binosi, zamonaviy sport ajnomlari bilan jihozlangan zal kursantlar ixtiyoriga topshirilgan. Sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan o'qituvchi-professorlar bilim berishmoqda. Kursantlar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qanday qo'llash usullari bilan ham yaqindan tanishmoqda. Ularga yong'in chiqqan paytda qanday harakatlanish, yong'inni to'g'ri baholay olish hamda to'g'ri chora-tadbirlar ko'rish sinchikovlik bilan o'rgatilmoqda.

– Bugun biz yoshlarning quvonchimiz cheksiz, – deydi Javohir Xolxo'jayev. – Bizni voyaga yetkazgan ota-onalarimizga, ta'lim-tarbiya bergan ustozlarimizga, samimiy minnatdorigimizni bildiramiz. Xalqimizning tinch-osuda hayotini, sog'ligini asrashdek baxtli kasb bo'lmasa kerak. Qutqaruvchilikdek sharafli kasbni egallab, yetuk kadrlar bo'lib yetishayotganimizdan hamda Vatanimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shayotganligimizdan faxrlanamiz. Yaratib berilayotgan keng imkoniyat va qulay shart-sharoitlarga javoban, xizmat faoliyatimizda favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash yo'lida bor kuch-g'ayratimizni safarbar etishga va'da beramiz.

Mana yana bir xalqimiz posbonining shijoati haqda so'zladik. Shubhasiz vatanimiz posbonlari o'z burchlarga sodiqdirlar. Ular borki, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, chegaralarimiz daxlsiz. Javlonbekdek mard va jasur o'g'lonlarimiz ko'payversin.

**R.SOIBJONOVA,**  
O'zJOKU harbiy jurnalistika  
yo'nalishi talabasi.

## BAXTSIZ HODISALARNING OLDINI OLISH

Qashqadaryo viloyati FVB tomonidan baxtsiz hodisalarning oldini olish borasida aholi va fuqarolar o'rtasida muntazam ravishda tushuntirish ishlari borib borilmoqda. Cho'milish taqiqlangan ochiq suv havzalari, suv ombor, daryo, kanal va soylarda nazorat tekshiruvlari, reydlar, targ'ibot-tashviqot ishlari, profilaktik tadbirlar sifatli va talab darajasida o'tkazilmoqda.

Shuningdek, fuqarolarga suvda suzishni bilmaslik va cho'milish qoidalarini buzish inson hayoti uchun o'ta xavfli bo'lishi mumkinligi, joylarda mavjud suv havzalaridagi mashg'ulotlarda ishtirok etish va suzish qoidalarini murabbiylar tomonidan o'rganish lozimligi tushuntirilib, eslatma va bukletlar tarqatilmoqda.

O.YO'LDOSHEV,

Dehqonobod tuman FVB bo'linma boshlig'i, mayor.

O'ZMTRK OYXTTEB xodimlari tomonidan yong'inlarning oldini olish borasida keng ko'lamdagi targ'ibot-tashviqot hamda tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda. Yong'inlarga sabab bo'ladigan holatlarni aniqlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

## YONG'INLAR

Shu o'rinda aytilish joizki, yong'inlarning aksariyati kishilarning loqaydligi, yong'in xavfsizligi qonun-qoidalariga rioya qilmasliklari va bolalarning olov bilan o'ynashlari natijasida yuzaga kelmoqda. Shu sababli insonlarga kutilmaganda yong'in sodir bo'lganda qanday harakat qilish kerakligini o'rgatish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanishni tushuntirish juda zarur hisoblanadi.

B.IBRAGIMOV,

O'ZMTRK OYXTTEB kichik inspektori, kichik serjan.

## KO'RSATMALAR BERILDI

Buloqboshi tumanida 2925 gektar maydonda g'alla mahsulotlari yetishtirildi. Mavsumga 10 dona kombayn jalb qilinishi belgilangan. Ushbu texnikalarning xavfsizlik va yong'in xavfsizligi holati profilaktik ko'rik va tekshiruvlardan o'tkazildi. Tadbirlar davomida aksariyat kamchiliklar joyida bartaraf etildi, bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar yuzasidan ma'sul shaxslarga yozma tavsiyanoma va ko'rsatmalar berildi.

Mavsum davomida fermer xo'jaligi rahbarlariga, kombayn va yoqilg'i quyish operatorlariga, g'allaga jalb etilgan ishchi-xizmatchi va fuqarolarga yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etgan holda ish tashkil etishlari tushuntirildi.

N.JO'RABOYEV,

Buloqboshi tumani FVB boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

## TASHVIQOT

Fuqaro muhofazasi instituti va hududiy Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlari tomonidan doimiy ravishda joylarda "Suvda baxtsiz hodisalarning oldini olish" mavzusida targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlar ochiq va yopiq turdagi cho'milish suv havzalari, cho'milish ta'qiqlangan joylar, turli idora, tashkilot va muassasalarda, shuningdek, mahalla fuqarolari yig'inlarida tashkil etilib kelinmoqda.

Mazkur tadbirlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 41 ta maskanda tashkil etilib, ularga 2542 nafar fuqaro jalb etildi. Mavzuga oid 1975 dona eslatma va bukletlar tarqatildi.

B.HAMIDOV,

Fuqaro muhofazasi instituti xodimi, katta leytenant.  
A.DEHQONOV, leytenant.

Zilzilalarning kelib chiqishiga yer ostidagi jarayonlardan tashqari, quyosh, oy hamda boshqa sayyoralarining tortishish kuchlari, koinotdagi o'zgarishlar ham ta'sir etadi. Ba'zilar zilzila sabablari yero'sti qazilma boyliklarini ko'p qazib olinayotganidan deb biladi. Biroq bu asosiy omil emas.

Kuchli zilzilalar bo'layotganda hamma ham xavfsiz joyda bo'la olmaydi. Kimdir ko'pqavatli bino ichida yoki hovlida, ko'chada, transportda bo'lishi mumkin. Shu bois, insonlar zilzilalar haqida hamisha muhim ma'lumotlarni bilishi kerak.

Shundaygina o'zini xavfsizligini ta'minlashga muvaffaq bo'ladi. Zilzila bo'lgan joyni zilzila o'chog'i deymiz, o'choqning markazi gipotsentr, deb ataladi. Gipotsentrning yer yuzidagi proyeksiyasi epitsentr, deb yuritiladi. Epitsentr va gipotsentr oralig'idagi masofa yoki yer sathidan gipotsentrgacha bo'lgan oraliq zilzilaning chuqurligi, deyiladi.

Seysmik to'lqinlar har xil tezlikka ega bo'ladi. Agar zilzila yaqin 100 – 150

kilometr gacha masofada bo'lsa, to'lqinlar birin-ketin tez yetib keladi, bir-biriga qo'shilib ketadi va ularni odamlar deyarli bir-biridan ajrata olmaydi. Agar masofa bir necha yuz kilometr va undan ortiq bo'lsa, to'lqinlar oldinma-keyin, lekin alohida-alohida yetib keladi.

S.TURSUNOV,

Yangiheyot tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## YER SILKINISHI

Toshkent shahar FVB tomonidan Olmazor tumanida qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. 3 kun davom etgan ushbu mashg'ulotda 800 dan ortiq kishi va 75 dona texnika, jumladan, 130 dan ortiq qutqaruvchilar va 9 ta yong'in-qutqaruv texnikalari jalb qilindi. Favqulodda vaziyatlar davlat quyi tuzilmalarining harakatlari tekshirildi. Tumandagi barcha tashkilotlarni favqulodda vaziyatlarda o'ziga yuklatilgan vazifalarni qanchalik tez va aniq bajarishlariga ahamiyat qaratildi.

## KO'NIKMALAR OSHIRILDI

Tadbir yakunida yo'l qo'yilgan kamchiliklar muhokama qilindi va ishtirok etgan barcha tuzilmalarga baho berilgan holda, fuqara muhofazasi tuzilmalarini bu borada bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash to'g'risida aytib o'tildi.

B. BOTIROVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 2-bosqich talabasi.

## BEPARVO BO'LMANG!

Aziz ota-onalar bolalarni uyda yolgiz qoldirmang, gaz asboblardan foydalanishiga aslo yol qo'ymang, gugurt va olov bilan oynash xavfli ekanligini uqitirib turishni unutmang.

Gaz va isitiladigan pechlarning soz holda ishlashini muntazam ravishda nazorat qiling. Gaz isitish pechlari va tarmoqlarini ozboshimchalik qilib, qoidaga xilof ravishda ulamang. Gaz plitalaridan xonani isitish maqsadida foydalanmang.

Y. RAVSHANOV,

Buxoro viloyati FVB Ko'kdumaloq gaz MCHJ OYOXTTEB katta inspektori, mayor.



Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i polkovnik F.Mirzayev tomonidan G'uzor tumanidagi "Pachkamar" suv ombori holati o'rganildi. Mazkur obyekt xodimlariga texnik mustahkamlikni ta'minlash borasida zarur tavsiyalar berildi.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.

## TEZKORLIK VA EHTIYOTKORLIK

Buxoro viloyati FVB tomonidan "Buxorodon-mahsulotlari" AJda o'quv-amaliy mashg'uloti o'tkazildi. "Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati va fuqara muhofazasi tuzilmalarining harakatlari" mavzusida tashkil etilgan mashg'ulotda shartli tarzda obyektning yuqori qavatida avariya sodir bo'lishi natijasida yong'in kelib chiqdi va xodim tomonidan xabar berildi. Viloyat FVB yong'in-qutqaruv guruhi yetib kelgunga qadar obyekt qutqaruv guruhi tomonidan binodagi ishchilar tashqariga olib chiqildi. Binoning yuqori qavatida qolib ketgan odam yong'in-qutqaruv guruhi tomonidan tezkorlik va ehtiyotkorlik bilan pastga olib tushildi. Jabrlanganlarga obyekt fuqaro muhofazasi tibbiy yordam guruhi tomonidan birinchi tibbiy yordam ko'rsatildi va kasalxonaga yetkazildi. Hodisa sodir bo'lgan joyda yong'inni bartaraf etish uchun viloyat favqulodda vaziyatlar o't o'chirish guruhi tezda harakat qilishdi.

N. NURULLAYEVA,

Buxoro viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

Qashqadaryo viloyati FVB tashabbusi bilan Qarshi shahridagi "Sohil" oilaviy istirohat bog'i, Qamashi tumanidagi Qamashi sum ombori, Kitob, Qarshi, Koson va Yakkabog' tumanlaridagi yopiq suv sport havzasi hamda Ko'kdala va Chiroqchi tumanlaridagi yirik kanallarda "Aholini suvda cho'kishi bilan bog'liq noxush holatlarning oldini olish, cho'milish havzalarida xavfsizlikni hamda kichik hajmli kemalar va ular turadigan inshootlardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash" mavzusida ko'rgazmali o'quv-amaliy seminarlar o'tkazilmoqda.

Ushbu tashkil etilgan seminarlarda viloyat IIB, MG va boshqa hamkor tashkilotlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va killari ishtirok etdi.



Jarayonda cho'kayotgan fuqarolarni qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish tadbirlari amaliy tarzda ko'rsatib o'tildi.

Tadbir doirasida qutqaruv asbob-anjomlari namoyishi ham tashkil etildi.

H.QOSIMXO'JAYEV,  
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'ining o'rinbosari, mayor.

## ZILZILA NIMA?

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab zilzila haqida aniq ma'lumot beradigan tizim hali yaratilmagan, shuning uchun ham qachon va qayerda, qanday kuchdagi zilzila ro'y berishini oldindan aytishning hozircha iloji yo'q.

Zilzila vaqtda vahimaga tushmaslik kerak. Bino ichida bo'lgan inson stol yoki stul tagiga kirib olib, shu yo'l bilan tepadan qulashi mumkin bo'lgan narsalardan himoyalaniishi joizdir. Binoning boshqa qismlariga qaraganda mustahkamroq bo'lgan eshik tagida turish, tashqarida esa bino, daraxt, suv yoki elektr simlariga yaqin bormaslik lozim. Zilzila to'xtaganidan keyin ham xavfsiz joydan chiqmasdan, biroz kutib turish, zilzila yuz berganda amalga oshirilishi kerak bo'ladigan birlamchi harakatlardir. Hozircha faqatgina zilzila vaqtida sodir bo'ladigan o'zgarishlar aniqlangan xolos.

O.IBRAGIMOV,  
Shayxontohur tumani FV bo'limi inspektori, mayor.

Маърифат соати

# ОММАВИЙ МАДАНИЯТНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

Маълумки, маданият халқимиз азалдан эъзозлаб, авайлаб келаётган миллий ҳамда диний қадриятларимиз ҳисобланади. Маданиятли, одобу ахлоқли, дину диёнатли оилада дунёга келган фарзанд, албатта, худди ота-онаси каби одобли бўлиб тарбия топади. Ҳозирги кунда миллат маънавиятига хавф солаётган таҳдидлардан бири – оммавий маданиятдир. Оммавий маданият XX аср ўрталарида шаклланган феномен бўлиб, унга қисқароқ ҳамда тушунарлироқ қилиб таъриф берадиган бўлсак, оммавий маданият – четдан кириб келаётган миллий қарашларимизга ёт маънавий ва ахлоқий иплатларни ўз ичига олган хуружлар йиғиндиси. Етакчи Ғарб мамлакатларида эстетик ва маънавий-маданий эҳтиёжлари нисбатан тор одамга мўлжалланган ижодий асар ёки буюмларни оммавий равишда ишлаб чиқариш тадбиркорликнинг бир турига айланган. Оммавий маданият бозор билан бевосита боғлиқ бўлиб, унинг қонунларига мувофиқ доимо фойда келтириши керак. Шунга кўра, оммавий маданият жанридаги ижодий асарлар ахлоқий бузуқлик ва зўравонлик, индивидуализм, эгоцентризм ғояларини тарғиб қилади. Оммавий маданият туб моҳиятига кўра, миллий маданиятларнинг кушандасидир.

Оммавий маданият асосан замонамиз вакилларининг янги-янги “мода”лари асосида бойиб боради. Гўёки, ким ўша “мода”га амал қилса, у маданиятли, деб топилади. Ҳамма оммавий равишда ана шу мода асосида яшаши керак бўлади. Акс ҳолда у замондан орқада қолган – маданиятсиз, деб ҳисобланади. Чунки у бугуннинг модасини билмайди. Шундан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, оммавий маданият бу – оммавий “мода” ният, яъни янгича модани ният қилиш, кимгадир тақлид қилиш, унга эришиш ва уни оммавийлаштириш демакдир. Бунинг йўли, айти интернет замонида анчайин осонлашган. Сайтлар ва ижтимоий тармоқлар орқали ёшларни оммавий маданият сари етаклаётганлар сони кундан-кунга ортиб бормоқда. Бу “маданият” тарафдорлари инсониятга тақдим этаётган маълумот ва ахборотларни турли кино, сериалларда, рекламаларда, савдо расталарида ҳам кўриш мумкин.

Бугун ёшларнинг ўртасида турли сайтлардан, ижтимоий тармоқлардан фойдаланмайдигани йўқ, десак муболаға бўлмайди. Уларнинг кўпчилиги содда, ғўр, ҳали ҳаётнинг баланд-пастини кўриб, оқ-қорани таниб улгурмагани, ҳою-ҳавасларга ўчлиги эса нопок ниятли кимсалар учун айти муддао бўлмоқда. Мана шундай мураккаб ва таҳликали замонда

ёшларни ўз ҳолига ташлаб қўйиш, уларни бегоналар қўлига топшириш, эртанимиз эгаларининг душман қуролига айланишига шарт-шароит яратиш, деганидир.

Аччиқ ҳақиқат бўлса ҳам шуни тан олиш керакки, баъзи ёшларимиз орасидаги ғарбга маҳлиё бўлиш, ўз миллийлигидан бегоналашиш ҳислатлари шубҳасиз, оммавий маданиятнинг таъсири натижасидир. Шу ўринда эътироф этиш керакки, оммавий маданият турмушимизга чет элдан келтирилаётган товарларнинг пардоз, ёрлик қоғозларидаги расмларида сўнги модадаги либослар, фильм, интернет тармоқлари орқали билимсиз ҳолда кириб келмоқда ва мазкур “маданият”нинг хуружини ҳали ҳамма бирдек англаб етаётгани йўқ. Ҳозирги кунда Ғарб мамлакатларидан кириб келаётган жуда ҳам нафратланадиган одатлар, танасига ҳар хил расмларни чиздириш, аянчлисиз, ҳозирда бу ҳолат қизлар орасида ҳам жуда кенг авж олмоқда. Баъзи ёшларимизни кияётган кийимини кўриб уялиб кетасан киши. Эмишки, бу ҳозирги мода. Энди модани ҳам чегараси, маданияти менталитети бўлади, ахир. Қадриятларимизни оёқ ости қиладиган либосларни кийиб юришлари-тиззаси йиртиқ шим, турли ёзув ва суратлар туширилган кийим-бошлар ахлоқ-одоб меъёрларига тўғри келмайди. Ёки аксинча,



куёв бўлмиш калта шёртик кийиб, бошига аллақандай шакллар тушириб юрса унинг йигитлик шаъни қаёқда қолади? Бу ҳолатлар айнан оммавий маданиятдан сизиб чиққан “маданиятсизлик”нинг ўзгинасидир.

Оммавий маданият инсонларнинг маданий ва эстетик талаблари савиясини пасайтиради. Ижтимоий муносабатларда инсонийлик тамойилини бузади. Халқнинг энг катта бойлиги бўлган ёшларни ўзига қаратиб, уларни маънавий ва маданий қарашларини менсимасликка ундайди. Бундан ташқари, ёшларни енгил ҳаётга чақириб, масъулиятсиз руҳда вояга етишига сабабчи бўлади. Хусусан, оммавий маданият ёшлар онгида телесериал ёки видеофилмдаги бош қаҳрамонларнинг ичиши, чекиши, муштумзўрлиги, ахлоқий меъёрларни менсимаслиги билан ўта салбий таъсир ўтказиши. Уни тарғиб қиладиганлар ҳаётга бир марта келасан бу ҳаётда хоҳлаганинча яша, қийинчиликларга қўл силта, биз билан бўл, бахтли бўласан, деб даъват қилади. Албатта, инсоннинг нафсига енгиллик, хоҳлагани ишини қилиш ёқади. Кўплаб ёшларни оммавий маданиятга эргашиб кетаётганининг сабаби ҳам шунда. Маълумотларга қараганда, ғарб ёшлари фарзанд дунёга келтириш ҳақида ўйламай қўйишган, йигитларга уйланмаслик, қизларга қирққа тўлса-да, турмушга чиқмаслик урф бўлган. Улар наздида, оила – барча ташвиш ва бахтсизликнинг асоси ва эркинликни бўғувчи ихтиёрий қуллик эмиш. Бундай қарашлар бизнинг жамиятимизга зиддир, бу каби салбий одатлар ёйилишининг олдини олишимиз керак.

Шу ўринда бобокалонимиз Алишер Навоийнинг қуйидаги сатрлари ёдга тушади: “Олдиға қўйганни емак – ҳайвон иши, Оғзига келганни демак – нодон иши”. Аслида “оммавий маданият” соясида кириб келаётган ахлоқсизлик, беҳаёлик, зўравонлик ва бузуқлик каби иллатлар дунёдаги ҳеч бир халқнинг миллий маданиятига ҳам, умумбашарий қадриятларга ҳам тўғри келмайди. Хусусан, бизнинг заманимизда туғилиб ўсган, жаҳон маданияти ва цивилизациясига улкан ҳисса қўшган Имом Бухорий, Бурҳониддин Марғинович, Аҳмад Фарғоний, Абу Райҳон Беруний,


Мирзо Улуғбек ва бошқа кўплаб буюк аждодларимиз қолдирган мерос бугун ҳам долзарблигини йўқотгани йўқ. Халқимизнинг гўзал маънавий қадриятларга йўғрилган ор-номус, уят ва андиша, шарму ҳаё каби тушунчалари ҳаётимизга сингиб кетган. Айниқса, ота-онага ҳурмат, аёлга эҳтиром, мардлик ва жасурлик сингари туйғуларимиз бутун дунё халқларини ром этиб келмоқда.

Бугун огоҳлик сўзи ҳар доимгидан кўра муҳимроқ аҳамият касб этмоқда. Оилаларда биринчи навбатда фарзандларимизни турли таҳдидлардан, оммавий маданият иллатларидан ҳимоя қилиш учун ота-оналар ҳаммиша огоҳ ва ҳушёр бўлишлари лозимдир.

Миллатимизга мутлақо ёт бўлган маънавий, ахлоқий-бузуқлик, тубанлик, зўравонлик иллатларини ўз ичига олган оммавий маданият ёйрилиб кириб келиши мумкинлигидан огоҳ бўлиш ҳар биримизнинг бурчимиздир. Инсон ҳаёти давомида бирор шахсни ўзига ўрнак, деб билади, у каби ҳаёт кечиришни, у эришган ютуқлар каби муваффақиятларга эришишни, юксак чўққиларга чиқишни кўзлайди. Бугун жамиятнинг ёш аъзолари ўз ҳаётлари учун бошқа маданият вакилларининг фикрлаш ва ҳаёт тарзини ўрнак қилиб олишлари кўп муаммоларни келтириб чиқармоқда. Луқмони Ҳакимдан: Насихатларингизнинг кўпи ёшларга оид, аммо ёши каттароқларга камроқ бўлади, бунинг сабаби нима? – деб сўрадилар. Луқмони Ҳаким шундай жавоб бердилар: Боғбон ерни юмшатиб, кўчат ўтқазиб, унинг атрофини хас-хашақдан, зарарли ёввойи ўтлардан тозалаб, керак бўлган вақтда сув билан ўғит бериб турса, тез вақтда дарахт етилади, унумли, серҳосил бўлади. Болани ҳам ёшлигидан яхшилаб тарбия қилинса, гўзал ахлоқли, одобли қилиб ўстирилса, у бола нафақат ўзига, ота-онасига бахт-саодат келтиради, жамият учун фойдали, керакли инсон бўлиб етишади. Юқорида келтирилганлардан хулоса қилиб айтаемизки, одоб, чиройли хулқ фарзандлар камоли сари қўйилган илк қадам ҳисобланар экан.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ  
тайёрлади.





# ВУЛҚОНЛАР

Ер пўстидаги ёриқлар, каналлар орқали лава, иссиқ газ, сув буғлари ва жинс бўлақларини чиқариб турадиган геологик тузилмага вулқон дейилади.

Маълумотларга қараганда, сай-ёрамизнинг 50 дан 350 км.гача етadиган чуқурликларида суюқ модда – магма ҳосил бўлади. Ер пўстининг ёриқ зоналари бўйлаб магма кўтарилиб чиқиб, Ер юзасига лава шаклида қўйилади.

Вулқонлар майдонли, ёриқли ва марказий вулқонларга ажратилади.

**Дарзлик туркумидаги вулқонлар.** Улар ер юзасига йирик ер ёриқлари бўйлаб отилиб чиқади. Вулқон аппарати очилиб қолган ёриқ шаклида бўлади. Дарзликлардан чиқадиган асосий магма – базальт маҳсулотлари суюқ бўлиб, ер юзига бир текисда ёйилиб, бора-бора қалқонсимон шаклни олади.

Ҳозирги вақтда дарзлик вулқони Исландияда (Лаки вулқони), Камчаткада (Толбачи вулқони), Янги Зеландиянинг Бипа оролида ривожланган.

**Марказий туркумидаги вулқонлар.** Бу эффузив магматизмнинг энг кенг тарқалган туркумидир. Марказий вулқонлар доимо бир каналдан отилиб туради. Улар конус шаклида, ёнбағри 30 – 400 м қияликка эга

бўлади. Марказий вулқон кратерларининг диаметри кўпинча 500–2000 метр бўлиб, баъзан 25–75 км.гача (Африкада), чуқурлиги эса бир неча 100 метрга боради. Ҳозирги вақтда Ер юзиде ривожланган, ҳаракатдаги ва сўнган вулқонларнинг кўпчилиги марказий туркумдаги вулқонлардир.

Вулқоннинг қаттиқ маҳсулотларини – чақиқ жинслар ва қаттиқ маҳсулотлар ташкил этади. Чақиқ жинсларга шиша заррачалари, туффитлар, майда қумлар, ёнғоқдек келадиган шағал ва лапиллалар, вулқон брекчияси, шағаллари, конгломерати, бомбалари каби жинслар киради. Суюқ вулқон маҳсулотларига турли таркибли лавалар киради. Лаванинг кимёвий таркиби асосан, кремнезем, алюминий, темир, кальций, магний, натрий, калий оксидидан иборат.

Ҳозирги вақтда маълум бўлган ҳаракатдаги вулқонлар 800 дан ортиқдир. 1974 йилларда океанларни текшириш натижасида вулқонларни қуруқлик ва океан остида маълум бир йўналишда жойлашганлиги аниқлан-

ди. Улар асосан икки йўналишда бўлиб, биринчиси Тинч океан ҳалқаси деб, аталади. Бу ерда маълум бўлган барча ҳаракатдаги вулқонларнинг 60 фоизи жойлашган. Тинч океанининг Ғарбидан Камчатка ярим оролидан бошланган бу вулқон ҳалқаси Курил ороллари орқали Жануби-Ғарбга ча давом этади. Япония, Филлипин, Янги Гвинеядан ўтиб, Янги Зеландиягача чўзилиб боради.

Бизга маълум бўлган вулқонлар ичида балчиқ вулқонлар ҳам бор. Уларнинг маҳсулоти суюқ балчиқ аралаш сув ва газдан иборат бўлади. Улар Сицилия, Янги Зеландия оролларида, Марказий Америкада, Апшерон, Таман ва Керч ярим оролларида ва бошқа ерларда учрайди. Балчиқ вулқонлар ер қатламлари ичидаги газ ва буғларнинг турли ғовак қатламларидан ўтиб, улар орасидаги гилли жинсларни юмшатиб, ёпишқоқ балчиққа айлантириши натижасида вужудга келади.

Холида ЖАЛИЛОВА тайёрлади.

## ТЕЛЕФОН АППАРАТИ



XVII аср бошларида италиялик Жованни Порта сўзлашув карнайини лойиҳалаштирган. Аммо унинг уйлагани амалга ошмаган. 1837 йилда Самуел Морзе томонидан телеграф ҳарфларини кашф этилиши ахборот узатиш технологиясининг чўққиси ҳисобланган. Сим орқали сўзлашув имконияти пайдо бўлгач, ақлбовар қилмас шов-шув кўтарилган. Телефонни кашф этилиши жаҳон миқёсида ҳайратомуз воқеа эди. Табиийки, бу бир қанча қарама-қарши фикрларни пайдо бўлишига олиб келди. 1850 йиллар бошида италиялик шифокор Антонио Меуччи гўёки электр токи одамлар саломатлигига ижобий таъсир этишини аниқлайди ва генератор яратиш, хусусий амалиётхона очади.

1871 йилда у ихтиросини патентлашга қарор қилди. Аммо бунга муваффақ бўлолмади. 1860 йилда мактаб ўқитувчиси, немис физиги ва ихтирочиси Иоганн Филипп Рейс гальваник ток воситасида овоз ва мусиқани 100 метр масофага узатадиган қурилма яратади ва уни биринчи марта телефон деб атади. Аммо у ҳам аппаратига патент олишга эриша олмади, унга Белл, Эдисон ва Грей эътибор қаратишди. Ниҳоят 1876 йил 7 мартда америкалик Белл телеграф моделини такомиллаштириб, унга патент олди.

Гап шундаки, телефон яратиш Белл томонидан умуман режалаштирилмаган. Унинг мақсади, телеграфни такомиллаштириш эди. У бир вақтнинг ўзида 5 та телеграммани узатишга эришишга интилганди. Иш жараёнида турли частотали пластинка яратилди. Улардан бири кутилмаганда ишдан чиқди. Беллнинг ёрдамчиси Жон Ватсон жаҳл билан сўкина бошлади. Ўша пайтда узокроқдаги хонада қабул аппарати ёнида бўлган Белл аппаратда унинг овозини эшитди... Ўша воқеадан бошлаб биринчи телефон яратилиш тарихи бошланади. Унда кўнгирак йўқ эди. Бундан кейинроқ Беллнинг ёрдамчиси, ўша Жон Ватсон ихтиро қилди. Микрофонни эса Томас Эдисон такомиллаштирди.

Белл расмий равишда “Телефон отаси” сифатида тан олинди. У ҳаддан ташқари бойиб кетди, унинг патенти ўша пайтда дунёда энг даромадли бўлганди. Аммо, кечикиб бўлса-да ҳақиқат қарор топди: кутилмаганда 2002 йилда АҚШ конгресси телефонни яратган Белл эмас, Антонио Меуччи эканлигини тан олди ва телефон ихтиро қилинган аниқ вақт 1860 йил экани қайд этилди.

Дунё БЕРДИҚУЛОВА тайёрлади.

Сут эмизувчилар туркумига кирадиган китларнинг 100 га яқин тури бор. Китлар ҳеч қачон тўлиқ ухламайдилар, чунки улар вақти-вақти билан тоза ҳавога кўтарилиши керак. Уларнинг уйқуси кўпроқ ярим тушга ўхшайди, чунки улар 3 ой давомида ухлай олмайдилар. Китлар очликдан ҳам кўрқмайди. Улар 8-10 ой давомида овқатсиз юра олади. Уларнинг бўйи 1,2 метрдан 33 метргачага етади.



## КҮК КИТ

Энг катта денгиз ҳайвони бу кўк кит бўлиб, унинг узунлиги 30 метрдан ошиши мумкин, вазни эса 125 тоннагача бўлади. Янги туғилган боласининг вазни икки тоннага яқин. Кит боласи кунига 300 – 350 литр она сутини ичади.

XX асрнинг биринчи ярмида 350000 – 360000 та кит овланган. Бундан ташқари, худди шу даврда 11000 та Шимолий Атлантика кити ва 9500 та Шимолий океан кити ўлдирилган. Халқаро кит овлаш комиссияси 1966 йилда кўк китларни овлашни тақиқлади ва уларни бутун дунё бўйлаб ҳимоя остига олди. Бу жонзотлар бошининг орқа қисмида жойлашган махсус орган ёрдамида ҳавони ютади. Вояга етган кўк китнинг танасида тахминан 8000 литр қон бор. Умр давомийлиги 100 ёшдан ошиши мумкин. Урғочи китлар тахминан икки йилда бир марта битта туғайди ва уларнинг ҳомиладорлиги 11-12 ой давом этади. Китлар ҳар куни тахминан 8 миллион калория овқат истеъмол қилади. Бу ҳайвонларнинг қулоқлари йўқ, лекин пастки жағида жойлашган махсус органлар уларга ёрдам беради. Товушларни эшитади. Уларда таъм ва ҳид билиш каби ҳислар умуман йўқ. Китларнинг ёғидан глицерин, маргарин ва совун, гўштидан консерва, суягидан талқон қилишда фойдаланилади. Жигарида витамин А кўп бўлади. Кўпчилик турларининг сони кескин камайиб кетганлиги сабабли овлаш ман этилган.

Севинч МАҲМУДОВА тайёрлади.



# Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
**Ўзбекистон**  
**Республикаси**  
**Фавқуллодда**  
**вазирлар**  
**вазирлиги**

Бош муҳаррир  
**Азамат СУЮНОВ**

Газета таҳририят  
компьютерхонасида  
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба куни чиқади.  
Топшириш вақти – 15.00  
Топширилди – 15.00

Навбатчи:  
**А.ҚОБИЛОВ**

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди  
ва изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри таҳририят  
нуқтаи назаридан фарқлиниши  
мумкин.

Газетадан олинган материаллар  
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва  
ахборот агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-сон рақам  
билан рўйхатга олинган  
**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Юнусобод тумани,  
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.  
**Тел.:** (71) 212-69-56  
**Телеграмм:** (90) 016-87-67

**Индекс:**  
якка обуначилар ва  
ташқилотлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”  
босмахонасида босилди.  
Манзил: Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.  
Адади – 6000 нуска